

SPECIAL EXCURSIONS FOR FOREIGN TOURISTS AND ATTENTION TO CULTURAL  
CONNECTIONS

СПЕЦИАЛЬНЫЕ ЭКСКУРСИИ ДЛЯ ИНОСТРАННЫХ ТУРИСТОВ И ВНИМАНИЕ К  
КУЛЬТУРНЫМ СВЯЗЯМ

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12737702>

**Yunusov Komiljon Alimdjanovich**

*Oriental universiteti ilmiy xodimi;*

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

*magistratura bosqichi bitiruvchisi*

**Annotatsiya:** Muzeylar har bir xalqning madaniy, ma'naviy va tabiiy yodgorliklarini saqlash hamda namoyish etishdan tashqari xorijlik sayyoohlар uchun mahalliy madaniyat haqida ma'lumot beruvchi muassasa vazifasini ham bajaradi. Ko'plab muzey ashyolari qadimdan davom etib kelayotgan xalqaro savdo va madaniy aloqalar mavjudligini tasdiqlar ekan, bu borada qaysi davrda qaysi xalqlar bilan hamkorlik keng yo'lga qo'yilganini ilmiy tadqiqotlar natijasida aniqlash mumkin. Ushbu maqolada esa, xalqlararo madaniy aloqalar tadqiqi haqida emas, balki har bir millat vakili uchun o'zaro shakllangan madaniy aloqalarni muzey eksponatlari misolida bayon etish haqida fikr yuritiladi. Bu orqali ikki xalq o'rtasida do'stona rishtalarni mustahkamlashga tarixiy asoslar mavjudligi ko'rsatiladi. Ayniqsa, xorijiy martabali shaxslar tashrif buyurganda ularning tarixidagi biz bilan bog'liq hamkorlik munosabatlarini ko'rsatishga ehtiyoj tug'iladi. Shu sababli mazkur maqolada ekskursiyalarni tashkil etishda xorijlik tashrifchilarning madaniy yaqinligiga e'tibor qaratishning ahamiyati haqida fikr yuritilib, ular uchun xos ekskursiya tashkil etishning chora-tadbirlari haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** Muzey, ekskursiya, xorijiy sayyoohlар, madaniy aloqalar, xalqaro munosabatlar, hamkorlik, eksponat, ekskursovod malakasi, ekspozitsiya.

**Annotation:** Museums serve as institutions that provide information about local culture for foreign tourists in addition to preserving and displaying cultural, spiritual and natural monuments of each nation. As many museum objects confirm the existence of long-standing international trade and cultural ties, through scientific research it is possible to determine at what time cooperation with which peoples was widespread. In this article, we don't discuss the formation of cultural relations between peoples, we pay attention to the description of the cultural relations formed by representatives of each nation on the example of museum exhibits. This shows that there are historical foundations for

*strengthening friendly ties with any nation. Especially when foreign dignitaries visit, there is a need to show the history of cooperation with us. Therefore, in this article, we discuss the importance of paying attention to the cultural proximity of foreign guests when holding excursions, and also provide information on measures to organize a special excursion for them.*

**Key words:** Museum, excursion, foreign tourists, cultural relations, international relations, cooperation, exhibit, tour guide qualification, exposition.

**Аннотация:** Помимо сохранения и демонстрации культурных, духовных и природных памятников каждого народа, музеи также служат учреждениями, предоставляющими иностранным туристам информацию о местной культуре. Поскольку многие музейные предметы подтверждают существование давних международных торговых и культурных связей, в результате научных исследований можно определить, в какой период с какими народами было широко установлено сотрудничество. В данной статье речь идет не об исследовании культурных связей между народами, а об описании культурных связей, формируемых представителями каждого народа, на примере музейных экспонатов. Это показывает, что существуют исторические основы для укрепления дружественных связей между двумя народами. Особенно когда приезжают иностранные высокопоставленные лица, возникает необходимость показать историю сотрудничества с нами. Поэтому в данной статье рассматривается важность обращения внимания на культурную близость иностранных гостей при проведении экскурсий, а также дается информация о мерах по организации для них специальной экскурсии.

**Ключевые слова:** музей, экскурсия, иностранные туристы, культурные связи, международные связи, сотрудничество, выставка, квалификация экскурсовода, экспозиция.

## KIRISH

Muzey eksponatlariga oid ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular orasida mahalliy madaniyatga mansub yodgorliklar bilan birga, qo'shni xalqlardan kirib kelgan buyumlarga ham guvoh bo'lamiz. Xususan, O'zbekiston muzeylarida Eron, Hindiston, Xitoy, Yaponiya, Yaqin Sharq mamlakatlari, Afrika va Yevropa davlatlaridan olib kelingan san'at asarlari, kitoblar va boshqa buyumlarga nigohimiz tushadi. Aksincha, qo'shni davlatlardagi muzeylarda ham O'zbekiston madaniyatiga xos bo'lgan eksponatlarni ko'rishimiz mumkin. Bu holat shundan dalolat beradiki, jahon tarixida xalqaro iqtisodiy va madaniy aloqalar dinamik tarzda – goh kuchayib, goh susayib bo'lsa-da, davom etib kelgan.

Hozirgi kunimizdagi integratsiyaga bo'lgan hayotiy ehtiyojni hisobga olganda, avvalo qo'shni davlatlar bilan, shuningdek, uzoq-yaqindagi mamlakatlar bilan hamkorlikni saqlash hamda kengaytirishdan manfaatdormiz. Bu borada muzeylar hamkorlikning tarixiy asoslarini ko'rsatishi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Ammo, biror xorijiy delegatsiya uchun

alohida mavzuli ekskursiya tayyor bo'lmasligini hisobga olsak, muzey ekskursovodlarining malakasi va bilimiga tayangan holda bu vazifani uddalash mumkin. Ma'lumki, O'zbekistondek faol tashqi siyosat olib borayotgan davlatga xorijiy delegatsiyalar (rasmiy martabali mehmonlar) tez-tez tashrif buyurmoqda. Ularning deyarli barchasi muzeylarga ekskursiya uchun keladi. Shu jihatlarni hisobga olgan holda, ekskursovodning qay darajada maqsadli ekskursiya o'tib bera olishi biz e'tibor berishimiz muhim bo'lgan jihat hisoblanadi. Shunday ekskursiyalar davomida hamkorligimiz chuqur asoslarga ega ekanligini, barcha davrlarda ajdodlarimiz iqtisodiy-madaniy aloqalarni davom ettirib kelganini namoyish etsak, bundan buyon ham o'zaro do'stona munosabatlarni rivojlantirishga katta zamin yaratiladi. Muzeydan mehmonlarning mammun bo'lib chiqib ketishi yurtimizga bo'lgan xayriyohlikni oshiradi. Ayniqsa, mehmonlar eksponatlar orasida o'z bobolari o'tmishi bilan bog'liq yodgorliklarni ko'rishlari, ularning qiziqishi ortishiga sabab bo'ladi. Tarixda ikki xalq o'rtasida do'st bo'lgan insonlar haqidagi hikoyalarni aytish esa bugungi hamkorlarning do'stligi mustahkamlanishiga hissa qo'shami. Buning uchun ekskursovod tayyorgarlik ko'rishi va mehmonlar uchun eng ahamiyatli ma'lumotlarni bera olishi lozim bo'ladi. Ushbu vazifa anchagina murakkab bo'lib, yetarli bilimga ega bo'lish, xorijiy tillarda erkin gapira olish, bugungi xabar va yangiliklardan doim ogoh bo'lib borish, hamda mehmon tashrifchilarining o'z yurtlari geografiyasi, madaniyatini bilish va davlat arboblarini tanish talab etiladi. Mazkur maqolani yozishdan maqsad ham xorijiy delegatsiyalarga xos ekskursiya o'tishning ahamiyatini ta'kidlash, va bunday ekskursiyalarni qay tartibda o'tishga oid tavsiyalarni berishdan iboratdir.

### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI**

Xorijiy delegatsiyalar uchun alohida ekskursiya o'tishga oid maxsus ilmiy tadqiqot ishlari izlanishlarimiz davomida uchramadi. Shunday bo'lsa-da, muzey va ekskursiya mavzularida yozilgan bir qancha ishlar topib o'rganildi. Avvalo, muzey faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanishib chiqildi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-261-son qarori,<sup>159</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi PF-1913-son Farmoni<sup>160</sup> o'qib o'rganildi. Ekskursiya mavzusida Samarqand Iqtisodiyot va servis institutida alohida o'quv qo'llanma tayyorlangani tafsinga loyiq. "Ekskursiya xizmatini tashkil qilish" deb nomlangan ushbu maxsus o'quv qo'llanma R. Amriddinova, N. Ibadullayev, G. Tursunova hamda O. Tuxliyev tomonidan tayyorlangan. Ilmiy maqolalar orasidan esa, Umarov Omonjon hamda To'xtanazarova Mohinur hammallifligida "Madaniy turizmda ekskursiyaning ahamiyati", Jabbarova Latofat hamda Irgasheva Sojida hammallifligidagi "Ekskursiya

<sup>159</sup> "Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-261-son qarori, 27.05.2022-yil. Manba: <https://lex.uz/uz/docs/-6040013>

<sup>160</sup> "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-1913-son Farmoni, 12.01.1998-yil. Manba: <https://lex.uz/docs/-209722>

xizmatini shakllantirishda ekskursovodning o'rni" kabi o'zbek tilidagi maqolalar, hamda Gurel Cetin, Serhat Harman, Cenk Demiroglu, Tevfik Izgi hammuallifligida yozilgan "The Role of Museum Guides on Visitor Experience" (Tashrifchilar taassurotida muzey gidlarining o'rni) singari maqolalar o'qib-o'rganib chiqildi.

"Madaniy turizmda ekskursiyaning ahamiyati" nomli maqolada xorijlik sayyoohlarga sifatli ekskursiya o'tish haqida umumiy fikrlar bayon qilingan, ammo xorijliklar uchun maxsus ekskursiya o'tish haqida to'xtalib o'tilmagan. (Umarov O., To'xtanazarova M., 2024: 946) Bundan tashqari, "Ekskursiya xizmatini shakllantirishda ekskursovodning o'rni" sarlavhasi ostidagi maqolada esa ekskursiya mavzusini tanlash, ekskursiya maqsadini belgilash xususida fikrlar bildirilgan. Biroq, xorijlik tashrifchilarga mavzuli ekskursiya o'tish haqida aytilmagan. (Jabbarova L., Irgasheva S., 2023: 53)

"The Role of Museum Guides on Visitor Experience" nomli maqolada bo'lsa ekskursovod vazifasi va kommunikativligi bayon qilinib, tashrif buyurgan insonlarning muzeidan oladigan taassuroti hosil bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi. Lekin, unda ham ayni mavzuyimizga xos fikrlar bayon etilmagan. (Cetin G., Harman S., Demiroglu C., Izgi T., 2013)

Shuning uchun mazkur maqola mavzusini o'rganilmagan deb hisoblab, yurtimizda olib borilayotgan islohotlar yo'lida foydali manbaga aylanadi degan umidda ushbu maqolani havola etamiz.

## METODOLOGIYA

"Xorijiy sayyoohlар uchun xos ekskursiyalar va madaniy bog'liqliklarga e'tibor" nomli ushbu maqolani yozishda eksperimental, qiyosiy va so'rovnoma metodlaridan foydalanildi. Mavzuga oid ma'lumotlarni o'rganish uchun Google Scholar, cyberleninka.ru, zyouz.com va boshqa akademik ma'lumotlar bazalaridan foydalanildi. Shu bilan birga, Temuriylar tarixi davlat muzeyidagi sakkiz yil davom etgan ekskursovodlik faoliyatimda hosil bo'lgan tajriba, bu davr mobaynida xorijiy sayyoohlар va delegatsiya vakillarining fikrlarini eshitishim va tahlil qilishim asosida ushbu tadqiqot ishi amalga oshirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy sayyoohlар uchun xos ekskursiyalar o'tish alohida tayyorgarlik talab etadi. buning uchun muzey ilmiy xodimlari birgalikda faoliyat yuritishlari maqsadga muvofiq. "Muzeishunoslik" o'quv qo'llanmasidagi quyidagi fikrlar bilan fikrimizni quvvatlashimiz mumkin: "Muzey yo'lko'rsatkichi, odatda, muzeyning tashkil etilgan yangi konsepsiysi asosida yaratiladi. Yo'lko'rsatkichlar tashrif buyuruvchilarning yosh doirasiga: maktab yoshidagi bolalar, mahalliy aholi, sayyoohlар, maxsus guruhlар, yakka tartibdagi tomoshabinlar, xorijliklar uchun alohida tartibda muzeyning "Ekskursiya va ekspozitsiya" bo'limi ilmiy xodimlari tomonidan ishlab chiqiladi." (Mavrulov A., Saidboboyev Z. 2018: 68)

Buning uchun oldindan xorijlik tashrifchilarning davlati geografiyasi, qadimgi tarixi va bugungi kundagi holatini bilish, madaniyatidan xabardor bo'lish, davlat rahbari va mashhur shaxslarini tanish lozim bo'ladi. "Yurtimizga kelayotgan sayyoohlarga sifatli xizmat ko'rsatish uchun gid-tarjimonlar nafaqat o'z davlatining madaniyati, san'ati, tarixi, ona tili va xorijiy tillarni, balki sayyoohning madaniyati va o'ziga xosligini ham bilishi zarur," – deya ta'kidlaydi

N.Buxarova. (Buxarova N., 2024: 400) Ayniqsa, ikki mamlakat o'rtasidagi madaniy aloqalardan to'liq xabardor bo'lish, hamda yurtimizda ularning tarixiga oid qanday yodgorliklar saqlanayotganini bilish zarur hisoblanadi. Eng muhimi, o'sha sayyoohlarning tilida gapirib ekskursiya o'tib beriladigan bo'lsa, ular juda mamnun bo'lishadi. Shuningdek, bizning ajdodlarimiz orasida jahon xalqlari uchun xizmat qilib qo'ygan buyuk shaxslar bor, aksincha, xorijiy mashhur olimlar orasida bizning tariximiz uchun ham xizmat qilib o'tganlar topiladi. Tariximiz haqida boy ma'lumotlar yozib qoldirgan Vengriyalik olim Herman Vamberi, (Nasilloyev S., Sirocheva F., 2021: 653) O'zbekistonda umrining oxirigacha yashab ijod qilgan yaponiyalik arxeolog Kato Kyudzo (Кузнецов С., 2016: 69) kabi shaxslar haqida eslab o'tish ikki xalq aloqalari rivojiga xizmat qiladi.

Temuriylar tarixi davlat muzeyidagi faoliyatimda Janubiy Koreyadan tashrif buyurgan martabali rahbarlarga xizmat ko'rsatganman. Shu tashrifda millati koreys bo'lgan, O'zbekistonda tug'ilib katta bo'lgan gid-tarjimon mehmonlarga hamrohlik qilib yuran edi. Bu gid avvallari ham ko'p bora koreyalik turistlarni muzeysiga olib kelgani uchun ularning madaniyatiga taalluqli eksponatlarni bilar va aynan shular haqida alohida to'lqinlanib gapirar edi. Sayyoohlар ham ayni shu eksponatlar oldida o'zgacha taassurot bilan gidni tinglashardi. Uning bu tajribasi Koreyadan martabali shaxslar tashrif buyurganida qo'l keldi. Aslida shu inson kabi boshqa gid-tarjimonlarni ham o'zi bilgan xorijiy tilida xos ekskursiya uchun tayyorlab, ulardan foydalansa bo'ladi. Ammo, aynan muzey ekspozitsiyasiga oid ma'lumotlarni gid-tarjimonlar muzey ekskursovodi darajasida bilmaydi. Maqolada aytilayotgan fikr ham muzeydagi eksponatlar misolida hamkorlik aloqalarimiz qadimiy ekanini ko'rsatib berishdir. Shuning uchun bu avvalo muzey ekskursovodlarining vazifasi hisoblanadi. Endi, quyida ba'zi muzey eksponatlari misolida madaniy aloqalarga daxldor ma'lumotlarni ko'rib chiqamiz.

Temuriylar tarixi davlat muzeyida yurtimizdagи ikkinchi renessans davri hikoya qilinadi. Ma'lumki, Amir Temur tanazzulga mutbalo bo'lgan mamlakatni 35 yil ichida dunyoning har qanday davlati havas qiladigan obod yurtga aylantirdi. Buning ortida ko'plab olim va hunarmandlarning mehnati mavjud bo'lib, ularning aksariyati Eron hududidan taklif etilgan. Chunki Movarounnahrda mo'g'ul istilosidan keyin ro'y bergan iqtisodiy-ijtimoiy inqiroz ilm-fan va san'atning ham tanazzuliga sabab bo'lgandi. Temuriylar tarixi davlat muzeyidagi ko'plab bino maketlari tanishtirilganda eronlik me'morlar, quruvchilar, sangtaroshlar va boshqa ustalar nomlarini eslab o'tish mumkin. Yana ba'zi nafis bronza buyumlar borki, ularni ham eronlik hunarmandlar yasagan. Mirzo Ulug'bek tashabbusida bunyod etilgan rasadxonaning asosiy kuzatuv qurilmasi ham G'iyosiddin Jamshid al-Koshoni (Koshiy) boshchiligidagi o'rnatilgan. Bu olim bir davrning o'zida Ulug'bek madrasasi va rasadxonasida sermahsul faoliyat yuritgan. Ko'rib turganimizdek, me'morchilikda va ilmiy faoliyatda eronlik buyuk olim bilan qanday do'stona aloqalar yo'lga qo'yilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, G'iyosiddin Jamshid ancha tajang kishi bo'lib, u bilan samimiy muloqot qila oladigan odamlar soni oz bo'lgan ekan. Hatto, Mirzo Ulug'bekka ham shu inson bilan ishlamaslik haqida fikr bildirilganda, Ulug'bek uning ilmi uchun hurmat qilishini,

shu sababli uning fe'liga sabr qilishini aytgan ekan. Tariximizning bu kabi jihatlarini ibrat-namuna sifatida aytish bugungi xalqlarning do'stligini mustahkamlashga albatta hissa qo'shadi. Mirzo Ulugbekning ukasi Boysung'ur Mirzoning ham olimlar bilan birga o'tirgan miniatyurasi nusxasi muzeyda saqlanadi. Boysung'ur Mirzo fors adabiyotining shoh asari bo'lmish "Shohnoma"ni original holda saqlab qolishda katta xizmat ko'rsatgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Boysung'ur Abulqosim Firdavsiy ijodiga mansub "Shohnoma" asarining barcha nusxalarini bir joyga yig'diradi. (Fayziyev T., 1995: 328) Ularning hammasini qiyosiy tadqiq etishni buyurib, keyin aslidagidek bitta mukammal nusxa tayyorlashni, uning sahifalarini miniatyuralar bilan bezashni aytadi. Bundan birinchi navbatda eronliklar abadiy minnatdor desak, mubolag'a bo'lmasa kerak. Agar shu vazifa bajarilmaganda, "Shohnoma"ning asli yo'qolib, turli chala nusxalari bizga yetib kelishi mumkin edi.

Temuriylar tarixi davlat muzeyida forsiy tilda bitilgan bir qancha qo'lyozma va toshbosma asarlar ham saqlanadi. Barcha eronlik sayyoohlар shu asarlarga katta qiziqish bilan qaraydilar. Ekskursovodlar ham mazkur manbalar haqida ko'proq ma'lumot beradigan bo'lsa, eronlik sayyoohlар uchun taqdim etilgan ekskursiya ancha mazmunli o'tadi. Masalan, Sharofiddin Ali Yazdiy qalamiga mansub "Zafarnoma" asari fors tilida, XIX asrda toshbosma nusxada ko'chirilgan "Temur tuzuklari" asari ham fors tilida ekanligi ma'lum. Bundan shu xulosa kelib chiqadiki, turkiy millat hech qachon fors millatini o'ziga begona hisoblamagan, doimo yonma-yon yashab hamkorlikda faoliyat yuritgan. Tojiklar ham mahalliy xalq hisoblanadi. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, Mavarounnahr va Xurosonning forsiy-dariy tilida so'zlashuvchi aholisi XI asrdan boshlab o'zini «tozi», ya'ni «tojik» deb yurita boshlaydi. (Nabihev M., 2021: 2) Shu kabi ma'lumotlarning ekskursiya davomida eslatib o'tilishi Markaziy Osiyo xalqlarining integratsiyasi yo'lida ijobiy rol o'ynaydi.

Eron bilan tarixiy-madaniy hamkorlikka oid ma'lumotlar shu qadar ko'pki, ularni o'rghanish, eronlik sayyoohlар uchun so'zlab berish bugungi aloqalarning yanada mustahkamlanishiga hissa qo'shadi. Erondan tashqari, Turkiya, Yevropaning ko'plab davlatlari, sharqda Hindiston, Xitoy, Koreya, Yaponiya kabi davlatlar bilan ham savdo-sotiq, madaniy aloqalar yaxshi yo'lga qo'yilganiga guvoh bo'lamiz. Jumladan, hozirgi Turkiya hududiga kirib borgan saljuqiylar asli Markaziy Osiyolik turkiylar ekanini eslab o'tish, Ulugbekning shogirdi Ali Qushchi Usmonli davlatiga borib, u yerda ilm-fan yuksalishiga katta hissa qo'shgani haqida so'zlab berish turkiyalik qardoshlarimiz uchun foydali va manfaatli bo'ladi. Ma'lumki, Ali Qushchi Istanbulda, Avliyo Sofiya masjidida dars o'tib, ko'plab yosh olimlar yetishib chiqishiga rahbarlik qilgan. (Imamov U., 2023: 13) Qolaversa, Istanbul orqali Yevropa davlatlariga sharqdagi ilmiy yutuqlar kirib borishiga sababchi bo'ldi. Bu esa Yevropa uyg'onishi uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Hozirgi vaqtida Ali Qushchining qabri mashhur sahobiy Abu Ayyub qabri yonida joylashgan. Bu sahaba musulmonlar ichidagi eng baxtli kishilardan sanaladi. Sababi Muhammad alayhi salom hijrat qilib Madinaga kelganlarida dastlab Abu Ayyubning uyida yashab turganlar. Abu

Ayyub shunday insonga mezbon bo'lish baxtiga yetishganidan bir kunda barcha musulmonlar orasida mashhurlikka erishdi, hamma unga havas bilan qarardi. Mana shu sahoba taqdir taqozosi bilan Istanbulda dafn etilgan. Asrlar o'tib, Ali Qushchi ham vafot etganda, uni Abu Ayyub yoniga dafn etishadi. Bu – Turkiyadagi qardoshlarimizning Ali Qushchi bobomizga bo'lgan ehtiromi. Bu kabi voqealarni so'zlab berish ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikning yanada mustahkamlanishiga sabab bo'ladi. Temuriylar tarixi davlat muzeyidagi rasadxona suratida Ali Qushchining ham tasviri bor.

Ali Qushchidan tashqari Qozizoda Rumiyni ham eslab o'tish mumkin. Bu olim Mirzo Ulug'bek tomonidan Samarcandga taklif etilgan. Qozizoda Rumiy Ulug'bek madrasasida dars bergen, Rasadxonada ham ilmiy faoliyat yuritgan. (Imamov U., 2023: 14) "Ziji Jadidi Ko'ragoniy" nomli mashhur astronomik jadvalning tuzilishi eronlik va rumlik (hozirgi Turkiya hududi) olimlar bilan birligida mehnat natijasi ekanini aytib o'tish lozim.

Hindistonliklar uchun ham alohida ekskursiya matnini tuzish mumkin. Abu Rayhon Beruniyning "Hindiston" asari bilan birligida Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari Hindiston tarixi va madaniyati haqida ma'lumot beruvchi eng muhim manbalar hisoblanadi. Bu ikki olim sharofati bilan hindilar tarixi o'chib ketmadi. Boburiylar boshqa ko'plab bosqinchilar kabi tanazzulga sabab bo'lmadi, balki ular taraqqiyotning yangi darajasini olib kelishdi. Kitoblarni asragan holda o'zlari ham ijod qilgan holda ilm-fanni boyitishdi. Shuning uchun ham ko'plab hindistonliklar O'zbekistonga tashrif buyurmoqdalar. Ularga ekskursiya tashkil etilganda boburiylarning madaniyat, xususan, me'morchilikdagi xizmatlarini yodga olish bilan birga, yaqin tariximizdagi La'l Bahodir Shastrini eslab o'tish ham mumkin. Ma'lumki, Toshkentda La'l Bahodir Shastri nomi bilan ataluvchi ko'cha mavjud, uning haykali esa Sag'bon ko'chasida qad rostlab turibdi. Ekskursyaning kirish yoki xulosa qismida shu kabi qo'shimcha ma'lumotlarni aytib o'tish hindistonlik mehmonlarning yurtimizga bo'lgan mehr-muhabbati ortishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, O'zbekiston davlat san'at muzeyida qo'shni xalqlar uchun maxsus ekskursiya o'tish imkoniyati ancha katta. Sababi, bu muzeyda Xitoy madaniyatiga mansub alohida ekspozitsiya tashkil etilgan. Unda xitoy san'atiga mansub ko'plab eksponatlar saqlanadi. Xuddi shuningdek, Yaponiya, Koreya, Hindiston kabi mamlakatlar san'ati namunalari ham saqlanadi. Temuriylar tarixi muzeyida ham Hindiston tarixiga oid eksponatlar yo'q emas. Masalan, Boburiy shahzoda Doro Shukuhning nikoh to'yi marosimi haqidagi surat bo'lib, unda hindistonlik san'atkorlar ham tasvirlangan. Bu miniatyrani Hindiston hukumati Bobur devoni va "Boburnoma" asarining ingliz tilidagi nusxasi bilan muzeyga taqdim qilgan. Keyingi davrlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, Mirzo G'olib ismli Movarounnahrlik olim va ijodkor Hindistonga, Bahodirshoh Zafar saroyiga borib uzoq yillar xizmat qilganini xotirlashimiz mumkin. (Qorayev Sh., 2024: 195) Ikki xalq vakillari o'rtasidagi do'stona hamkorlik keyingi asrda ham davom etdi. Masalan, Raj Kapurning o'zbek san'atkorlari bilan ko'rishib mehmon bo'lgani, ikki xalq aktyorlarining birligida film ishlaganini kabi voqealar hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunday qo'shimcha ma'lumotlarni aytib o'tish hindistonliklar uchun xoslashdirilgan ekskursiyaga mazmun bag'ishlaydi.

Guvohi bo'lganimizdek, eksponatlar bilan birga tarixiy shaxslarning faoliyati ham xalqaro hamkorlik masalalarini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Ekskursovodlardan esa tarixiy shaxslarning faoliyatini to'laroq o'rganish, ayniqsa, xorijliklar bilan tarixiy munosabatlarni o'rganish mazmunli ekskursiya o'tishga katta yordam beradi. Misol uchun, Mirzo Ulugbekning Koreya qiroli Sejong bilan yozishmalari, ilmiy yangiliklardan bir-birini xabardor etishi, iqtisodiy-madaniy aloqalarni rivojlantirgani aytib o'tilsa afzal bo'ladi. XX asrda esa minglab koreyaliklarning O'zbekistonga kelib boshpana topgani, ularning hozirgi vaqtgacha biz bilan yashayotganini ta'kidlab o'tish ikki xalq o'rtaсидаги do'stlik rishtalari mustahkamlanishiga olib keladi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolada ba'zi eksponatlar misolida xorijlik sayyoohlarga maxsus ekskursiya o'tish bo'yicha fikrlar bildirildi. Shuningdek, bir necha tarixiy shaxslar faoliyati misolida ham xalqaro hamkorlik aloqalari ko'rib chiqildi. Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, muzey ekskursovodlari har bir eksponatning kelib chiqishini o'rgangan holda o'zları uchun maxsus ekskursiya matnlarini tuzib olsalar maqsadga muvofiq bo'lar edi. Sababi, muzey ekskursiyachisi nafaqat muzey xodimi, balki, xorijiy delegatsiyaga xizmat ko'rsatish uchun tayinlangan vakil ham hisoblanadi. Uning qay darajada ekskursiya o'tishi mehmonlarning tasavvuriga va munosabatiga ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, muzeyda ular o'z tarixlari bilan bog'liq eksponatni ko'rsalar-u, ekskursiyachi u haqda ma'lumot bermay o'tib ketsa, bu mehmonlarning kayfiyatiga ta'sir etadi. Shuning uchun, ekskursiya ishiga mas'uliyat bilan yondashgan holda, har bir delegatsiya uchun oldindan tayyorgarlik ko'rish tavsiya etiladi. Yana shuni tavsiya etgan bo'lardimki, salomlashish, minnatdorchilik bildirish kabi so'zlarni mehmonlar tilida aytish ularning ekskursovodga bo'lgan ixlosi ortishiga sabab bo'ladi. Qolaversa, butun xalqqa nisbatan ijobjiy munosabat shakllanishiga ekskursiyachi hissa qo'shgan bo'ladi.

Ta'kidlash o'rinniki, hamma uchun bitta mavzuni aytaverish bilan, har kim uchun o'ziga tegishli mavzudagi ma'lumotlarni yetkazib ekskursiya o'tkazish o'rtaсидада katta farq bor. Shundagina ekskursiyachi rivojlanadi, dunyoqarashi kengayadi. Uning ekskursiyasini bir marta tinglagan kishilar yana kelishdan zerikmaydilar, balki bunga zarurat his etadilar. Ularning bu tarzdagi faoliyati davlatimiz islohotlari uchun ham muvofiq bo'lib, xorijiy davlatlar vakillarini taklif etishdan ko'zlangan maqsadga erishishda, ularda o'zbek xalqiga nisbatan samimiy munosabatni oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Oqibatda esa O'zbekistonning jahon davlatlari orasida nufuzi yuksalishiga, buning ortidan iqtisodiy samaradorlikka erishishga ekskursiyachilar o'z salohiyati bilan hissa qo'shgan hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. "Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-261-son qarori, 27.05.2022-yil. Manba: <https://lex.uz/uz/docs/-6040013>
2. "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-1913-son Farmoni, 12.01.1998-yil. Manba: <https://lex.uz/docs/-209722>
3. Amriddinova R, Ibadullayev N., Tursunova G., Tuxliyev O. "Ekskursiya xizmatini tashkil qilish" O'quv qo'llanma. – Samarqand, 2015. – 291 b.
4. Muzeishunoslik. O'quv qo'llanma. Mas'ul muharrirlar: Mavrulov A., Saidboboyev Z. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2018. – 260 b.
5. Файзиев Т. Темурийлар шажараси. – Тошкент, 1995. – 351 б.
6. Umarov O., To'xtanazarova M. "Madaniy turizmda ekskursiyaning ahamiyati". "Yoshlar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili" nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiysi to'plami. Qo'qon universiteti, 18-aprel, 2024. – B. 944-950.
7. Cetin G., Harman S., Demiroglu C., Izgi T. (2013) "The Role of Museum Guides on Visitor Experience" *Turismo cultural y gestión de museos*, - pp. 73-86.
8. Jabbarova L., Irgasheva S. (2023) "Ekskursiya xizmatini shakllantirishda ekskursovodning o'rni" *Interpretation and researches. International scientific journal*, V 1, Issue 3, – pp. 51-53.
9. Nasilloyev S., Sirocheva F. (2021) "A.Vamberining "O'rta Osiyoga sayohat" asarida Buxoro va Samarqand shahri tarixiy-me'moriy binolari, hamda ziyoratgohlarining tadqiq etilishi" *Academic Research in Educational Sciences*. Volume 2, Issue 12, - pp. 652-662. DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-652-662
10. Кузнецов С. (2016) "Вспоминая профессора Като Кюдзо" *Известия Иркутского государственного университета. Серия: История*. Т. 18. – С. 69-76.
11. Buxarova N. (2024) "O'zbekistonda gid-tarjimonlarni tayyorlash: gid – madaniy vositachi" International scientific and practical conference: "*Innovative approaches in study of the language, literature, translation, tourism and cultural heritage on the silk road*" – B. 396-401. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11083127>
12. Nabihev M. (2021) O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixiga oid eng muhim manbalar. Manba: [https://www.researchgate.net/publication/350706530\\_O'ZBEK\\_XALQINING\\_ETNOGENEZEI\\_VA\\_ETNIK\\_TARIXIGA\\_OID\\_ENG\\_MUHIM/link/606dd52d92851c8a7baf09c9/download?tp=eyJjb250ZXh0Ijp7ImZpcnN0UGFnZSI6InB1YmxpY2F0aW9uliwicGFnZSI6InB1YmxpY2F0aW9uIn19](https://www.researchgate.net/publication/350706530_O'ZBEK_XALQINING_ETNOGENEZEI_VA_ETNIK_TARIXIGA_OID_ENG_MUHIM/link/606dd52d92851c8a7baf09c9/download?tp=eyJjb250ZXh0Ijp7ImZpcnN0UGFnZSI6InB1YmxpY2F0aW9uliwicGFnZSI6InB1YmxpY2F0aW9uIn19)
13. Imamov U. Historical source studies of the scientific heritage of Ulugbek's academy education providers (Activities of Alavouddin Ali ibn Muhammad Kushchi

14. Qorayev Sh. (2024) Buyuk boburiylar sultanatining so'nggi hukmdori Bahodirshoh  
II ning adabiy kechalari va shoir Mirzo G'olib. *Zamonaviy ta'limda fan va innovatsion  
tadqiqotlar*, 2-son, 9-to'plam.